



**O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI REKTORINING
BUYRUG'I**

2021-yil "29" 07

№ 287 D

Toshkent shahri

O'zbekiston Respublikasi Oliy
va o'rta maxsus ta'lim vazirining
2021-yil 23-iyuldagi 314-sonli
buyrug'i ijrosini ta'minlash
to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 23-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021-yilning 16-iyun kuni o'tkazilgan 34-sonli yig'ilish bayoni ayrim bandlari ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi 314-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 23-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021-yilning 16-iyun kuni o'tkazilgan 34-sonli yig'ilish bayoni ayrim bandlari ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi 314-sonli buyrug'i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor (S.Jumayev), O'quv ishlari bo'yicha prorektor (R.Ismailov), Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor (E.Shermanov), Ilmiy-tadqiqot bo'limi boshlig'i (D.Mamajonov), fakultet dekanlari (M.To'rayev, S.Davlatov, A.Qurbonov, M.Axmetjanova) va barcha kafedra mudirlariga:

- kafedralarning ilmiy faoliyatini tahlil qilish asosida kafedralarning ilmiy faoliyat ustuvor yo'nalishlari va xususiyatlarini inobatga olib kafedralar huzurida ilmiy-ijodiy tadqiqot markazlarini tashkil etish;

- ilmiy-ijodiy tadqiqot markazlari faoliyatidan daromad topish uchun shart-sharoitlarni yaratish;

- tegishli tarmoq korxonalarining muammolarini ilmiy yechishga yo'naltirilgan kamida 3 yillik dasturni shakllantirish;

- oliy ta'lim muassasasini tarmoq korxonalari bilan bog'lash bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish;

- kafedralarni tarmoq korxonalari bilan samarali hamkorligini yo'lga qo'yish va tarmoq korxonalariga biriktirish;

- tarmoq korxonalarida talabalar amaliyotini tashkil etish hamda bo'sh ish o'rinlariga bitiruvchilarni ishga joylashtirish choralarini ko'rish;

- kafedra professor-o'qituvchilarining korxonalarda amaliy tadqiqotlar o'tkazishga sharoit yaratib berish;

- tarmoq korxonalari bilan tuziladigan 10 yillik hamkorlik shartnomalari bo'yicha takliflarni 2021-yil 15-sentyabrga qadar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga taqdim etish;

- joriy yilning 1-sentyabriga qadar talaba va ish beruvchilarni bir-biriga bog'lovchi "Karyera markazi"ni tashkil etish hamda ushbu markazga "Marketing va talabalar amaliyoti" bo'limi xodimlarini mas'ul etib belgilash;

- "Karyera markazi"ga hamkor korxona va tashkilot vakillarini har oyda kamida ikki marotaba institutga kelib, talabalar seleksiya ishlarini amalga oshirishlari uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish hamda talabalarga mehnat bozorida mos vakansiyalar izlash va ish beruvchilar bilan suhbat o'tkazish, talabalarining bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida "Karyerani rivojlantirish" nomli maxsus (onlayn) kurs tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

3. Bosh hisobchi (L.Qayumov), Axborot texnologiyalar markazi rahbari (M.Savochkin), Ishlar boshqarmasi boshlig'i (J.Karimov)larga:

- kafedralar huzurida tashkil etilayotgan ilmiy-ijodiy tadqiqot markazlar faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun ularni o'quv laboratoriya va boshqa moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlash;

- "Karyera markazi" faoliyatiga mas'ul bo'lgan xodimlarga byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan ustamalar berib borish;

- "Karyera markazi" uchun alohida xona ajratish va uni kerakli moddiy-texnik baza hamda ko'rgazmali qurollar bilan ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Marketing va talabalar amaliyoti bo'limi bosh mutaxassisi (A.Usmanova) va Marketolog (M.Norxo'jayeva)larga:

- talabalarga mehnat bozori to'g'risidagi qonun hujjatlari asoslari, mehnat bozorida mos vakansiyalar izlash ko'nikmalari, ishga joylashishi uchun rezyume tayyorlash, ishga joylashish uchun talab etiladigan hujjatlar bilan tanishtirish;

- iqtisodiyot va ijod tarmoqlarining ilg'or mutaxassislari va ekspertlarini jalb qilgan holda talabalarni kasbga yo'naltirish, mehnat bozoridagi mavjud va istiqboldagi holat, muayyan kasbga, ish joylariga va ish beruvchilarga, istiqbolli korxonalarga oid ma'lumotlar bilan tanishtirish;

- Mehnat organlari, ta'lim muassasalari, manfaatdor idoralar va tashkilotlar ishtirokida ish o'rinlari yarmarkalari, karyera kunlarini tashkil etish va talabalarni

kelajakda kasbiy faoliyatga qiziqishlarini kuchaytiruvchi tadbirlarni amalga oshirish;

- yuqorida qayd etilgan vazifalar "Karyera markazi" ish faoliyatini tashkil etish jarayonidagi asosiy vazifa sifatida belgilanishiga alohida etibor qaratish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu buyruqni devonxona o'rnatilgan tartibda tegishli bo'limlarga yetkazsin.

6. Mazkur buyruq ijrosi yuzasidan nazoratni o'z zimmamda qoldiraman.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 23-iyuldagi 314-sonli buyrug'i.

Rektor



I.J.Yuldashev